O‘ZBEKISTON TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2026 Vol. 2

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON:

## TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN:

## LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 2

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir oʻrinbosari:** Nozliya Normurodova

**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

**Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Nurboy Jabborov, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Joʻraqulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshaboyeva, Zulxumor Xolmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

**Tahrir hay'ati**

Nazef Shahrani (AQSH)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)
Ahmadali Asqarov (Oʻzbekiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)
Akmal Nur (Oʻzbekiston)
Almaz Uvli (Ozarbayjon)
Muzaffar Komilov (Oʻzbekiston)
Tanju Seyhan (Turkiya)
Alizoda Saidumaran (Tojikiston)
Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Akmal Saidov (Oʻzbekiston)

"Oʻzbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni oʻrganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda toʻrt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – koʻrsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, oʻz konsepsiyasiga ega boʻlgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va oʻzbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

Oʻzbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib koʻchasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com
**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nozliya Normurodova

**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

**Editorial board**

Hamidulla Dadaboev, Nurboy Jabbarov, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islamov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshabaeva, Zulxumor Kholmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

**Editorial Committee**

Nazif Shahrani (USA)
Elisabetta Ragagnin (Italy)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)
Akmal Nur (Uzbekistan)
Almaz Uvli (Azerbaijan)
Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Tanju Seyhan (Turkey)
Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Nicholas Kontovas (Great Britain)
Akmal Saidov (Uzbekistan)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com
**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

## MUNDARIJA

### LINGVISTIKA

**Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova**
O‘zbek tilshunosligida Qur’oni Karim teolingvistik tadqiqot obyekti sifatida ........................................6

**Dilrabo ELOVA**
Normativ-huquqiy matnlarni lingvo-mantiqiy ekspertiza qilish metodologiyasi (Soliq kodeksining 248-moddasi misolida) ...............24

**Вафа Абдуллаева-Набиева**
Развитие синтаксиса азербайджанского языка в рамках лингвокультурологии ........................................40

**Kamil Tilyabayev**
O‘zbek tili: o‘rganish, dekolonizatsiya va hissiyot ........................................58

**Shaxlo Naraliyeva**
O‘zbek badiiy prozasida ekologik diskursning kognitiv-pragmatik tadqiqi (O‘tkir Hoshimov va Tog‘ay Murod asarlari misolida) ..........................82

### ADABIYOTSUNOSLIK

**Gulbahor Ashurova**
Turkum she’rlar – Alisher Navoiy obrazini yaratishda lirik vosita sifatida........................................95

**Abdug‘ani Nasriddinov**
Adabiyotda falsafa va dinning uyg‘unligi ........................................108

### FAN. TA’LIM. METODIKA

**Umidjon Kushayev**
Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiyasi: institutsional transformatsiya va strategik model (O‘zbekiston misolida) .......................120

**Мадина Назарова**
Формирование иноязычной риторической компетенции на материале английского официально-делового дискурса в неязыковом вузе ........................................133

### TARIX. MANBASHUNOSLIK

**Shamsiddin Kamoliddin**
Somoniylar va o‘g‘uz turklari ........................................149

**İlhami Cəfərsoy**
Avrasiyanın qədim Xivə, Samara və Buxara şəhərləri ........................................172

## CONTENT

### LINGUISTICS

**Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova**
The Holy Qur'an as an Object of Theolinguistic Research in Uzbek Linguistics........................................................6

**Dilrabo Elova**
Methodology of Linguo-Logical Expertise of Normative Legal Texts ........24

**Vafa Abdullayeva-Nabiyeva**
Development of the Syntax of the Azerbaijani Language Within the Framework of Linguoculturology ........................................40

**Kamil Tilyabaev**
Uzbek Language: Acquisition, Decolonisation and Emotions ........................58

**Shakhlo Naralieva**
A Cognitive-Pragmatic Study of Environmental Discourse in Uzbek Fiction (based on the works of Utkir Koshimov and Togay Murad)............82

### LITERATURE

**Gulbahor Ashurova**
Cycle of Poems as a Lyric Device in the Creation of the Image of Alisher Navo'i ........................................................95

**Abdugani Nasriddinov**
The Harmony of Philosophy and Religion in Literature ...............................108

### SCIENCE. EDUCATION. METHODOLOGY

**Umidjon Kushaev**
Integration of Artificial Intelligence into the Education System: Institutional Transformation and Strategic Model (Uzbekistan as an Example) ............120

**Madina Nazarova**
Formation of Foreign-Language Rhetorical Competence Through English Official-Business Discourse in Non-Language Higher Education...133

### HISTORY. SOURCE STUDIES

**Shamsiddin S. Kamoliddin**
Samanids and Oghuz Turks ........................................................149

**Ilhami Jafarsoy**
Ancient Khiva, Samara and Bukhara Cities of Eurasia ..................................172

ISSN 2181-922X 149—171

**TARIX. MANBASHUNOSLIK**
**HISTORY. SOURCE STUDIES**

# Somoniylar va oʻgʻuz turklari

Prof. Dr. Shamsiddin S. Kamoliddin[1]

**Abstrakt**

Maqolada Somoniylar sulolasining kelib chiqishi oʻgʻuzlar bilan bogʻliq boʻlganligi haqida soʻz yuritilgan. Xususan, ularning ajdodi Bahrom Chubin Xurosonda yashagan va Sosoniylarning harbiy xizmatida boʻlgan oʻgʻuz qabilalaridan yetishib chiqqan. Somoniylar sulolasining bobokaloni Somon-xudot "Oʻgʻuznoma"da Somon-Yabgʻu deb atalgan va oʻgʻuzlarning ajdodlari qatorida tilga olingan. Somoniylar sulolasi oʻz hukmronligi davomida oʻgʻuz qabilalarining harbiy kuchlariga tayanganlar. Oʻgʻuzlar Somoniylar sulolasining eng yaqin, ishonchli va sodiq odamlari boʻlib kelgan. Nasr ibn Ahmadning oʻgʻli amir Nuh ibn Nasr (943 – 956-yillarda hukm surgan) "malik as-Sin" – Chin hukmdori, yaʼni Qoraxoniylar xonining qiziga uylangan edi. Qoraxoniylar sulolasining kelib chiqishi ham *tagʻazgʻaz*, yaʼni "toʻqqiz oʻgʻuz" deb ataluvchi qabilalar bilan bogʻliq edi. Somoniylar sulolasining soʻnggi amiri Abu Ibrohim Ismoil ibn Nuh al-Muntasir (vafoti 395/1004-05-y.) Gʻuz turklarining yetakchisi Yabgʻuning qiziga uylanib, u bilan qarindosh tutingan. XVI – XVII asrlarga oid manbalarda XIV asr oʻrtalarida yashagan "Ismoil Somoniyning avlodi" boʻlgan Jandiy-bekning Joʻchiylar bilan qarindosh tutinib, oʻz qizini Joʻchi Bukaning nabirasi va Shaybonxonning toʻrtinchi nasldagi avlodi boʻlgan Ming Temurxonga nikohlab berganligi qayd etilgan. Mening fikrimcha, XIV asrda yashagan mazkur Jandiy-bek Somoniylarning soʻnggi amiri al-Muntasirning Gʻuz turklari yetakchisi Yabgʻuning qizi bilan qurgan turmushidan qolgan avlodi boʻlgan. Ming Temurxonning Jandiy-bekning qizidan boʻlgan toʻrtinchi nasldagi avlodi Dasht-i Qipchoqda koʻchmanchi oʻzbeklar davlatining asoschisi Abu-l-Xayrxon (1412 – 1468) edi. Uning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451 – 1510) esa 1501 – 1601-yillarda Oʻrta Osiyoda hukmronlik qilgan Shayboniylar oʻzbek sulolasining asoschisi edi.

**Oʻzak soʻzlar:** *Turkiston, Xuroson, oʻgʻuzlar, Bahrom Chubin, Buxoro, Somon-xudot, "Oʻgʻuznoma", Somoniylar, Saljuq turklari.*

[1] *Shamsiddin Kamoliddin Sirojiddin oʻgʻli* – tarix fanlari doktori, professor, Oriental uinversiteti.
**E-pochta:** shamskamol@gmail.com
**ORCID ID:** 0000-0003-2469-8717
**Iqtibos uchun:** Kamoliddin, Sh. S. 2026. "Somoniylar va oʻgʻuz turklari". *Oʻzbekiston: til va madaniyat* 2: 149 – 171.

**So‘z boshi**

O‘rta Osiyo tarixida Somoniylar sulolasining hukmronlik qilgan davri (IX – X asrlar) alohida ahamiyatga egadir. Chunki bu davrda Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlar islom dunyosining eng yirik madaniy va ilmiy markazlariga aylandi, mahalliy xalqlarning islom davridagi davlatchiligi asoslari yaratildi. Yozma manbalarda Somoniylar sulolasining turli vakillari, ular hukm surgan davrdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol haqida batafsil ma’lumotlar mavjud. Lekin Somoniylar sulolasining kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlar juda ham kam va bir-biriga ziddir. Somoniylarning asl kelib chiqishi hali noma’lum bo‘lsa ham, ko‘pchilik tadqiqotchilar orasida ularning kelib chiqishi fors va Sosoniylar sulolasi bilan bog‘liq degan xato fikr hukm surib kelmoqda. Shuning uchun Somoniylar sulolasining asl kelib chiqishini aniqlash hozirgi kunda tarix fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir, uni hal etish uchun esa oldingidan ham kengroq doiradagi manbalarni jalb etgan holda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarur.

**Bahrom Chubin**

Manbalarda Somon-xudotning kelib chiqishi haqida turli ma’lumotlar keltirilgan. Ko‘pchilik manbalarda uning shajarasi Sosoniy shohanshohi Xurmazd IV (579 – 590-yillarda hukm surgan) ning harbiy qo‘mondoni Bahrom Chubin (VI asr)ga borib taqaladi [Hudud al-‘Alam, 102; Ibn Haukal, 468; Наршахий, 133]. Bahrom Chubin avval Armaniston va Ozarbayjon, keyin esa Rey va Xuroson marzboni etib tayinlangan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Bahrom Chubinning kelib chiqishi Sosoniylar xizmatidagi o‘g‘uz turklaridan bo‘lgan [Гумилев 1967, 162].

Ma’lumki, Bahrom Chubin o‘zini Parfiyaning aslzoda Mihran urug‘idan, ya’ni, Arshakiylar avlodi bo‘lganligiga da’vo qilgan [al-Masudi 102, 155; Фирдоуси 1952, 282]. Arshakiylarning kelib chiqishi O‘rta Osiyoning ko‘chmanchi qabilalari bilan bog‘liq bo‘lib, ular qadimgi manbalarda Dahae umumiy nomi bilan tanilgan [Пигулевская 1958, 28]. Qadimgi fors bitiklarida daxlar Sirdaryoning quyi oqimi havzasida yashagan sak qabilalaridan biri sifatida qayd etilgan. Miloddan avvalgi III asrda ular janubga, Parfiya chegaralariga ko‘chgan [Вайнберг 1999, 207, 261]. Sharqiy Orolbo‘yidagi Jandaryoda tarqalgan Chirikrabot madaniyati daxlar bilan bog‘liq deb taxmin qilinadi [Пьянков 1968, 16].

Ibn Havqalning yozishicha, qadimgi turklarning Badjnak (بجنق) qabilasidan bir qancha odamlar qadimda o‘z yurtlarini

tark etib, avval al-Andalusga (الاندلس), so‘ngra al-Barza’a (البرذعة), ya’ni Parfiyaga ketishgan [Ibn Haukal, 15]. Bu xabarda miloddan avvalgi III asr oxirida ko‘chmanchilar tomonidan barpo etilgan Parfiya davlatining tashkil topishi davrida yuz bergan voqealar aks etgan bo‘lishi mumkin. Parfiyaliklar singari Sosoniylar ham o‘z chegaralarini qo‘riqlashda qo‘shni “yovvoyi” qabilalarning harbiy kuchlarini keng jalb qilganlar. Chunki ko‘chmanchilarning harbiy salohiyatidan foydalanish bir vaqtning o‘zida ular ustidan doimiy nazoratni ta’minlagan Chegara yerlarning hokimlari lavozimiga, asosan, eroniy bo‘lmagan xalqlar vakillari (xioniylar, eftaliylar, xazarlar, turklar, daylamiylar, armanlar, gruzinlar va boshqalar) tayinlangan. Ular “chegara posboni” ma’nosini anglatuvchi yuksak *marzbon* unvoniga ega bo‘lib, Sosoniylar saroyida oliy harbiy tabaqa qatoriga kiritilgan [Колесников 1981, 49, 54, 55].

Ma’lumki, Xusrav I Anushirvon turk malikasi Kayen [Тер-Мкртичян 1979, 57], ya’ni turk xoqonining qiziga uylangan [at-Tabari I, 899]. Bu nikoh forslarning 554 yilda turklar davlatiga yuborilgan elchiligi natijasida tuzilgan edi [Мокрынин 2004, 72]. Bu xoqonning ismi manbalarda Ko‘kam-xoqon tarzida keltiriladi tarzida ham keltiriladi, u 568-yilda Rum (Vizantiya)ga o‘z elchilarini yuborgan G‘arbiy Turk xoqonligining birinchi oliy hukmdori Istami-xoqon Dizavul bilan bir shaxs deb taxmin qilinadi [Ibnu’l-Balkhi, 24, 94, 98].

Xusrav I Anushirvonning o‘g‘li va taxt vorisi shahzoda Hurmazd IV onasi turk bo‘lgani tufayli forslar uni “Turkzoda” deb ataganlar. Hurmazd otasining siyosatini davom ettirib, Eron zodagonlari va ruhoniylariga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi, nasroniylarga nisbatan bag‘rikenglik siyosatini olib bordi va oddiy xalq ommasiga tayandi [Пигулевская 1946, 84 – 85], ommaning salmoqli qismini esa eftalitlar, turklar va boshqa eroniy bo‘lmagan xalqlar tashkil etar edi[1]. Aytishlaricha u shunday degan ekan: “Taxt faqat oldidagi oyoqlariga suyana olmasligi singari, davlat ham faqat zardushtiylarga tayanishi mumkin emas” [at-Tabari I, 990]. Bahrom Chubin esa uning *sipohsalori*, ya’ni bosh qo‘mondoni bo‘lgan. Umuman olganda, Eronning kamida 4 ta shohi (Xusrav I Anushirvon, Hurmazd IV Turkzoda, Xusrav II Parviz va Shiruya) turk xoqonlari bilan oilaviy aloqada bo‘lgan.

Bahrom Chubin 588-yilda eftaliylar va turklar ustidan g‘alaba qozongandan keyin shoh Xurmazd IV Turkzoda unga Balx va butun

[1] Shohanshoh Xurmazd IV Turkzoda o‘z hukmronligi davrida Eron zodagonlaridan 13 ming kishini qatl qildi [Bel’ami II, 248].

Xuroson yerlarini in'om etadi. Cho'l-xoqon[1]ning o'limidan keyin uning o'g'li El-tegin[2] Baykand qal'asiga berkinib oladi. Bahrom Chubin uni qamal qilib, taslim bo'lishga majbur qiladi va katta o'lja qo'lga kiritadi. Lekin uning hammasini shohanshoh Hurmazdga yubormasdan, asosiy qismini o'ziga olib qoladi. Shohanshoh bundan g'azablanib, uni lavozimidan ozod qiladi. Bahrom Chubin turklar bilan bitim tuzib, qo'shinlariga ko'plab turk askarlarini qabul qiladi va ular bilan birga Sosoniylar poytaxti Ktesifonga yurish qiladi. Xusrav II Parviz o'z poytaxtidan qochib, panoh izlab Rum (Vizantiya) imperatori Mavrikiy oldiga boradi. Sosoniylardan hokimiyatni tortib olib, Bahrom Chubin bir yildan ortiq vaqt davomida taxtda o'tiradi va hatto o'zining surati tushirilgan tangalar chiqarishga ham ulguradi. 591-yilda arman, gurji va rumliklarning Xusravga sodiq qolgan fors qo'shinlari bilan birlashgan harbiy kuchlari Armanistondagi Balarat daryosi yonida Bahrom Chubin qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratadi. Shundan keyin Bahrom Chubin sharq tomonqa qochib, Farg'ona turklari huzurida panoh topadi. U Barmuda ismli turk xoqoni, ya'ni El-teginning do'sti va maslahatchisiga aylanib, uning qiziga uylanadi. Lekin ma'lum vaqt o'tgandan keyin u Xusrav II Parviz tomonidan yuborilgan ayg'oqchi josus tomonidan zaharlab o'ldiriladi [Гумилев 1960, 229 – 230]. Somoniylar sulolasining bobokaloni Somon-xudot aynan shu nikoh natijasida vujudga kelgan oilaning avlodi bo'lgan.

Bahrom Chubinning ikkinchi ismi "Chubin" yoki "Chubina" o'rta fors tilida "qarg'a" degan ma'noni anglatgan [Wolf 1953: 301] va shohanshoh Hurmazd IV Turkzoda davrida uning saroy lahjasidagi laqabi bo'lgan deb hisobladi [Firdousi VI: 654 – 655]. VIII asrning 2-yarmida yozilib, Tibet tiliga tarjima qilingan bir geografik risolada o'sha davrda O'rta Osiyoda yashagan qabilalar va xalqlar orasida Yan-ti (Kushon) va Xe-bdal (Eftaliy) qabilalari bilan qo'shni bo'lgan Gar-rga-pur qabilasi qayd etilgan [Гумилев 1967, 162]. Ko'rinib turibdiki, bu yerda o'sha davrda G'arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kirgan To'xoristonda yashagan xalqlar haqida so'z yuritilgan. Gar-rga pur etnonimi 2 ta so'z – turkcha *gar-rga* (qarg'a)[3] va o'rta forscha *pur* (o'g'il)[4]dan iborat bo'lib, birinchisi forscha *chubin* (qarg'a)

[1] Bu xoqon Tardu (Qora Churin)ning o'g'li va Istami-xoqonning nabirasi El Arslon bilan bir shaxs bo'lgan. Narshaxiy uni Sher-i Kishvar deb atagan; arab tilidagi manbalarda u Shaba yoki Shiyoba, fors tilidagi manbalarda Sova-shoh, Xitoy manbalarida esa Asilan-dagan (Arslan-tarxan) deb atalgan.

[2] Matnda uning ismi Yil-tegin (يل تكين) shaklida keltirilgan. Xitoy manbalarida u Nili-xon, fors tilidagi manbalarda esa Parmuda deb atalgan.

[3] Qadimgi turk tilida *karga* so'zi "qarg'a" degan ma'noni anglatgan [ДТС, 426].

[4] O'rta fors tilida *pus(ar)* yoki qisqartirilgan *pur* so'zi "o'g'il" degan ma'noni anglatgan [MacKenzie 1971, 69].

so‘zining tarjimasidir. Balxda yashagan Bahrom Chubin avlodlarini turklar shunday deb ataganlar [Гумилев 1967, 162]. O‘rta asrlarda Balx atroflarida joylashgan ayrim aholi maskanlari Bahrom Chubin nomi bilan bog‘liq bo‘lgan. Masalan, Balx viloyatida Chubinobod (جوبيناباد) nomli qishloq qayd etilgan [as-Sam’oniy III, 348], Guzganon viloyatidagi Andhud shahridan Faryobga olib boruvchi yo‘lda esa Chubin (جوبين) nomli oraliq qo‘nalg‘a bo‘lgan [al-Moqaddasi, 347]. Taxmin qilish mumkinki, bu qishloqlar Bahrom Chubin avlodlarining mulki bo‘lgan.

Sibir xalqlari va Shimoliy Amerika hindulari mifologiyalarida qarg‘a yoki ona qarg‘a markaziy qahramon bo‘lib, eng oliy ajdod, madaniy qahramon va buyuk shaman sifatida namoyon bo‘ladi [Мелитинский 1991, 245]. Qadimgi turklarda qarg‘a tongda chiqayotgan Quyoshning ramzi hisoblangan va tonggi ko‘k osmon bilan bir qatorda oliy Xudo Tangrining timsoli bo‘lgan. Qadimgi turk hukmdori Kul-teginning bosh kiyimida qanotlarini yoygan burgut qiyofasidagi Qizil qarg‘a tasviri tushirilgan [Зуев 2002, 24, 226]. Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Yevropa va Hindiston xalqlarining mifologik tasavvurlarida esa qarg‘a, aksincha, iblisga o‘xshash mavjudot bo‘lib, baxtsizlik, ofat va yomonlik alomati hisoblanadi [Мелитинский 1991, 245]. Sosoniylar davridagi Eronda esa qarg‘a tasviri ko‘pincha xorijdan kelgan yot unsurlar va yovuz dushmanlarni ifodalash uchun ishlatilgan[1]. Tabiiyki, qarg‘ani anglatuvchi ism Bahrom Chubin kabi odamga faqat bu qush ijobiy qahramon sifatida qabul qilingan muhitda berilishi mumkin edi[2].

Bahrom Chubinning ajdodlaridan biri Chubin ibn Milod ismiga ega bo‘lgan [Macoudi II, 213]. Bahrom Chubinning 19-nasldagi ajdodi bo‘lgan xuddi shu shaxsning o‘zi boshqa manbalarda Karkin (Kargin, Gargin) ibn Milod deb atalgan [Гардизи, 62; Mustawfi-i Qazwini I, 94, 120]. Demak, uning asl ismi Kargin bo‘lib, bu ism qadimgi turkcha *karga* (qarg‘a) so‘zidan yasalgan, Chubin esa uning forscha tarjimasi bo‘lgan.

O‘rta asrlarda ko‘chmanchi turkman-o‘g‘uz qabilalari orasida *qarqin* degan qabila (el) qayd etilgan [Кононов 1958, 68, 72]. O‘g‘uz

[1] Bir qissada arab qabila boshlig‘i Xusrav I Anushirvonga “uning yerini qarg‘alar bosib oldi”, deb shikoyat qiladi. Xusrav undan: “Qaysi qarg‘alar Habashistondanmi yoki Hindistondanmi?” – deb so'radi, arab unga: “Habashistonlik” deb javob berdi [Browne 1997, 179].

[2] Jasoratlari xalq afsonalarida ulug‘langan Bahrom Chubin kabi mashhur qahramon qarg‘a baxtsizlik, ofat va yomonlik timsoli bo‘lgan iblisga o‘xshash jonzot sifatida ifodalangan muhitda bu nom bilan atalishi mumkin emas edi. Bahrom Chubin siymosining xalq dostoni qahramoniga aylanishi tarixi haqida qarang: [Czegdely 1958, 21 – 43].

turklarining afsonaviy ajdodlaridan biri Qarqin deb atalgan, nasl-nasabiga koʻra u Oʻgʻuzxonning 3-oʻgʻli Yulduzxonning 4-oʻgʻli boʻlgan [Рашид ад-Дин 1946 I (1), 88 – 89; Рашид ад-Дин 1987, 65 – 66], shuningdek, yana bir oʻgʻuz hukmdori Qarqin Qonaq-Alp deb atalgan [Кононов 1958, 78].

**Somon-Yabgʻu**

Ayrim dalillar al-Muntasir bilan oʻgʻuzlar boshligʻi Yabgʻu oʻrtasida oilaviy aloqalarning oʻrnatilishi, shuningdek, oʻgʻuzlarning Somoniylar bilan yaqinligi tasodifiy emasligini koʻrsatadi. Xususan, oʻgʻuzlarning oʻrta asr rivoyatlarida Somoniylar ularning ajdodlari sifatida namoyon boʻladi. Masalan, qadimgi oʻgʻuzlarning afsonaviy hukmdorlari qatorida Somon Xudot ham tilga olinadi. Rashid ad-Dinning “Oʻgʻuz-noma” asariga koʻra, Toʻquz (Dukur) Yavkuy ismli xondan keyin Movarounnahrda Somon Yavkuy deb atalgan Aslzoda xon hukmronlik qilgan, u yana Somon Xudot deb ham atalgan, va barcha Somoniylarning ajdodi boʻlgan [Рашид ад-Дин 1987, 94]. [1] Abu-l-Gʻoziy asarida oʻsha xon (yaʼni, Somon Yavkuy) “Aslzoda” nomi bilan tilga olinadi va uning 20 yil hukmronlik qilgani qayd etiladi. Unga koʻra, Somon Xudot 10 yil hukmronlik qilgan Arslonxondan keyin va Saljuqiylarning bobosi Arslonxondan oldin hukmronlik qilgan [Кононов 1958, 69]. Xuddi shu rivoyatning keyingi davrda yozilgan nusxasiga koʻra, “yavkuy” soʻzi “qabila boshligʻi” maʼnosini bildirgan va sulolaviy nom sifatida xizmat qilgan [Мухамедова 1978, 169 – 171].

Muslih ad-Din Muhammad al-Loriy (XV asr)ning “Mirʼot al-advor va mirhot al-agʻyor” (“Zamon va oʻzgarishlar shodligi koʻzgusi”) asarida ham Rashid ad-Dinning Somoniylarning oʻgʻuzlardan kelib chiqishi haqidagi xabari keltirilgan, va Rashid ad-Dinning “Jomiʼ at-tavorix” (“Yilnomalar toʻplami”) asariga ishora qilingan. Al-Loriyning yozishicha, Somoniylarning ajdodi Somon Yabgʻu[2], uni Aslzoda deb ham ataganlar, oʻgʻuz turklari oilasidan kelib chiqqan. Islom dini tarqalishining boshida uning oilasidan Toʻgʻrul ismli

[1] “Oʻgʻuz-noma” – Rashid ad-Dinning “Jomiʼ at-tavorix” (“Yilnomalar toʻplami”) tarixiy asaridan parcha boʻlib, uning qoʻlyozmasi Istanbuldagi Toʻpqopi saroyi kutubxonasida (Bagʻdod koʻshku fondi) 282-raqam ostida “Majmuʼa-i” Hofiz-i Abru” (vv. 590a – 601b va 641a) tarkibidada saqlanadi.

[2] Matnda: سامان باوغي – Somon-bovgʻi. Fors tilidagi manbalarda *yabgʻu* unvoni turli shakllarda keltirilgan: *biyogʻu* (بياغو) [Наршахи: 23], *boygʻu* (بايغو) [Джувейни, 444], *boyku* (بايكو) [Рашид ад-Дин I (2), 274. ], *biygʻu* (بيغو) [Таʼрих-и Систан, 343 – 351], *paygʻu* (پايغو) [Байхаки, 576, 602, 646; Гардизи, 117 – 118], *bovgʻi* (باوغي) [al-Loriy: 234a] va boshqalar boʻlib, “xalq yoki qabila oqsoqoli” maʼnosida qoʻllangan [Будагов 1869 I, 234].

hukmdor boʻlgan, undan keyin Somon Yabgʻu hukmronlik qilgan [al-Loriy, 234a]. Toʻgʻrul ismli xuddi shu hukmdor Rashid ad-Dinning yuqorida tilga olingan "Oʻgʻuznoma" asarida Tokuz (Dukur) Yavkuy deb qayd etilgan.

Somoniylar ajdodlarining Sirdaryoning quyi oqimi havzasidagi oʻgʻuzlar bilan aloqasi yana bir rivoyatda aks etgan. Unga koʻra, Somon Xudotning otasi islomga qadar lashkarboshi boʻlgan. Arablar istilosidan keyin Somon otasining mavqeyi oʻzgarib, Xuroson zodagonlaridan biriga tuya yoʻlboshchisi boʻlib qoladi. Biroq, bu uning uchun haqoratli edi, chunki u aslzoda edi. Islomgacha boʻlgan davrda Bahrom Chubin avlodlari butun Movarounnahrning hukmdorlari boʻlgan. Shuning uchun u Turkistonga borib, u yerda talonchilik bilan shugʻullanadi. Biroz vaqt oʻtgach, u kuchli qoʻshin toʻplab, Ashnos (اشناس) [1] shahrini egallaydi va uning hukmdori boʻladi [Mustawfi-i Qazwini, 379]. Xondamir (XV asr) asarida ham shunday maʼlumotlar keltirilgan [X$^v$andamir II, 352]. Eslatib oʻtamizki, Turkistonning Ashnos shahrida ilk oʻrta asrlarda aholining koʻpchiligini oʻgʻuz turklari tashkil qilgan, bunday shaharda hokimiyatni faqat oʻsha muhitning oʻzidan chiqqan kishi qoʻlga kiritishi mumkin edi. Nomaʼlum muallif tomonidan 611/1214-15-yilda arab tilida yozilgan bir qoʻlyozmada keltirilgan yana bir rivoyatda Sayxun daryosi (Sirdaryo) haqida soʻz yuritiladi, unga koʻra, bu daryo Maʼ Jand (ماء جند), yaʼni "Jand suvi" deb ham atalgan[2]. Bu daryoda Somoniylarning vatani Ashnos (اشناس) shahri joylashgan, Somon (سامان) esa uning *ʻamili* (عامل), yaʼni soliq yigʻuvchi noibi boʻlgan [Togan 1964, 63].

### Somoniylar va Oʻgʻuzlar

Maʼlumki, Somoniylar Sirdaryoning quyi oqimida yashagan oʻgʻuzlarning iltimosini qanoatlantirib[3], ularga Zarafshon vodiysidagi Nur atroflari va Buxoro atroflariga koʻchib kelishga ruxsat berganlar [ал-Хусайни, 164; Байхаки, 823]. Bu oʻgʻuzlarning avlodlari bugungi kungacha Buxoro viloyatining Nurota hududida istiqomat qilayotgan turkmanlar hisoblanadi [Шаниязов 1973, 5]. Maʼlumki, oʻgʻuzlar nafaqat shahardan tashqaridagi yerlarda, balki Buxoro shahriga bevosita tutash yerlarda ham oʻrnashgan. Xususan, Buxoro yaqinida Jand atroflaridan kelgan turkman koʻchmanchilari al-Qariyya al-Jadida (القرية الجديدة) – "Yangi qishloq" nomli qishloqqa

[1] Ashnos (اشناس) – Sirdaryoning quyi oqimida, Jand va Signoq oraligʻida joylashgan turklarning shahri [Mustawfi of Qazwin: 261; Рашид ад-Дин I (2), 200].

[2] Turkcha Jand suyi (جند سوي) yoki forscha Ab-i Jand (آب جند) nomining arabcha tarjimasi.

[3] Arab tilidagi manbalarda oʻgʻuz turklari "al-gʻuzz" (الغز) deb atalgan.

asos solganlar [as-Samʻoniy III: 319]. Keyinchalik bu qishloq shahar tarkibiga kirgan va Turk-i Jandiy deb atalgan[1] [Сухарева 1976, 91 – 92]. Oralaridan keyinroq Saljuqiylar sulolasi yetishib chiqqan bu oʻgʻuzlar Somoniylarni koʻp marta qoʻllab-quvvatlaganlar, ularning eng yaqin ittifoqchilari sifatida harakat qilganlar. Masalan, al-Utbiyning yozishicha, 382/992-93-yilda Somoniylar amiri Nuh II ibn Mansur (hukmronligi 365 – 387/976 – 997) davrida Buxoroda hokimiyatni qoʻlga olgan Bugʻroxon kasal boʻlib qolib, shaharni tark etganda[2], uning yoʻli oʻgʻuzlarning yerlaridan oʻtadi. Oʻgʻuzlar uning ketidan bir necha chaqirim taʼqib qilib, qoʻshinidan ortda qolgan va kuchsizlangan jangchilarni oʻldirganlar [ал-ʻУтби 1939, 223; ал-ʻУтби 1988, 26 – 27]. Ilikxonning oʻgʻli Horun Somoniy amirlaridan biriga qarashli chekka hududlarning bir qismini qoʻlga kiritganda, Horun oʻgʻuzlar hukmdori Saljuqqa yordam soʻrab murojaat qiladi, va Saljuq unga yordamga oʻz oʻgʻli Arslonni qoʻshin bilan yuboradi [Ибн ал-Асир 2006: 198]. 391/1000-01-yilda Somoniylarning soʻnggi amiri al-Muntasir Qoraxoniylarning Oʻzganddagi zindonidan qochib, Xorazmga yoʻl oladi [ал-ʻУтби 1939, 223; ал-ʻУтби 1988, 37], chunki u yerda aholining salmoqli qismini oʻgʻuzlar tashkil qilar edi [Hudud al-ʻAlam: 121 – 122]. Oxirgi Xorazmshoh Abu-l-Abbos Maʼmun ibn Maʼmun (hukmronligi 399 – 407/1009 – 1016) saroyida bir qancha Somoniy shahzodalari boʻlgan [Байхаки, 808 – 809, 812 – 817].

**Amir Nasr ibn Ahmad**

Ibn az-Zubayr oʻzining “Kitab az-zaxaʼir va-t-tuhaf” (“Boyliklar va sovgʻalar haqida kitob”) asarida yozishicha, 327/938-39-yilda as-Sin podshohi amir Nasr ibn Ahmad (301 – 331/914 – 943-yillarda hukm surgan) huzuriga as-Sinning eng yirik 4 nafar olimlaridan iborat elchilarini yuborgan. Ularning xavfsizligini taʼminlash uchun 40 ta otliq askar ularga hamrohlik qilgan. Elchilar amir Nasr ibn Ahmadga as-Sin podshohining maktubini berishadi, unda u amirdan soʻnggi 27 yil davomida as-Sin podshohiga toʻlanmagan soliqni toʻlashini va as-Sin podshohiga boʻysunishini ochiq tan olishni talab qilishgan. Aks holda, u Somoniylarga qarshi qoʻshin joʻnatish, soʻngra Iroq va butun xalifalikka qarshi yurish bilan tahdid qildi. Amir Nasr

[1] XV asrda bu yer qabriston boʻlib, unda Xoja Jandiy nomi bilan shuhrat qozongan Abu Nasr Ahmad ibn Fadl Muso mazori joylashgan. U hanafiy mazhabining mashhur faqihi shayx Abu Bakr Muhammad ibn Ishoq Kalobodiy al-Buxoriyning (vafoti 380/990-91 yoki 385/995-96) shogirdlari va safdoshlari (ashoblaridan) dan edi [Гафурова 1992, 70].

[2] Ibn al-Asirning yozishicha, bu voqea 383/993-94-yilda sodir boʻlgan [Ибн ал-Асир: 155 – 157].

ibn Ahmad elchilarni qabul qilib, ularga quyidagi mazmundagi javob xatini topshirdi: "Ey yigit, bilginki, men seni va senga o'xshaganlarni nazardan qochirmaganimning sababi qo'rquvdan emas, kuchsizligimdan yoki qo'shin va qurol-yarog'imning yetishmasligidan ham emas. Men tilimni tiyganimning sababi faqat shuki, oliy hukmdor (ya'ni xalifa) menga harakat qilishni buyurmadi. Mening dinimda buyruqsiz biror ish qilish mumkin emas..." Shundan so'ng as-Sin podshoh islom dinini qabul qildi" [Ibn az-Zubayr, 148 – 149].

Abu Dulaf o'zining birinchi daftarida yozishicha, u Xurosonga kelganida, amir Nasr ibn Ahmad huzuriga as-Sin podshohi Kalin ibn ash-Shohirdan elchilar kelib, undan ikki sulola o'rtasida nikoh shartnomasini tuzishni so'radi. Lekin Nasr ibn Ahmad qizini g'ayridin kofirga berishdan bosh tortdi. Shunda ular amirdan o'g'illaridan birini as-Sin podshohining qiziga uylantirishni iltimos qilishdi va amir bunga rozi bo'ldi. Nasr ibn Ahmad as-Sindan kelgan elchilar bilan birga o'zining elchilarini Abu Dulaf hamrohligida uyg'urlar poytaxti Sandabil (Kansu) shahriga yubordi. Uyg'urlar malikasi as-Sindan Buxoroga yetib kelganda, amir Nasr ibn Ahmad vafot etgan edi, keyin u taxt vorisi amir Nuh ibn Nasr (331 – 343/943 – 954-yillarda hukm surgan)ga turmushga chiqdi va undan bo'lajak amir Abdulmalik ibn Nuh tug'ildi [Abu Dulaf: 347 – 361]. Bu ikkinchi ma'lumotda ham, aftidan, Sharqiy Turkistondagi qarluq podshohining amir Nasr ibn Ahmad huzuriga yuborgan mazkur elchilari nazarda tutilgan bo'lsa kerak. Shundan keyin ko'p o'tmay qarluqlar podshohi islom dinini qabul qilib, Somoniylar bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatgan [Мец 1966, 376; Bosworth 1969, 24 – 25].

Arab tilidagi manbalarda as-Sin (الصين) atamasi ko'pincha Xitoy imperiyasini anglatgan. Lekin mazkur manbalarda *malik as-Sin* (ملك الصين), ya'ni "as-Sin podshohi" deganda, xitoy imperatori emas, balki moniylikni qabul qilgan turklar nazarda tutilgan [ат-Табари, 11 – 16]. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, islomgacha bo'lgan davrda Movarounnahrning barcha hududlari as-Sin mamlakati tarkibida bo'lgan, Samarqand esa uning bosh shahri bo'lgan. Islom dinidan keyin moniylikka e'tiqod qilgan as-Sin aholisi o'z yurtlarining markaziga ko'chib o'tgan, Samarqandda esa ularning izlari, ya'ni a'lo sifatli qog'oz ishlab chiqarish izlari saqlanib qolgan [Marvazi, 6; ал-Марвази, 47]. Arab geograflari al-Istaxriy va Ibn Haukalning yozishicha, "Forslar, ya'ni Sosoniylar, davrida Eronshahr (ايرانشهر) yoki al-Fors (الفارس) mamlakatining chegaralari ma'lum edi. Islom dinining qabul qilinishi bilan qo'shni as-Sin, ar-Rum va al-Hind

mamlakatlariga qarashli yangi yerlar qoʻlga kiritilib, Eronshahrga qoʻshib olindi. Jumladan, as-Sin (الصين) mamlakatidan Movarounnahr tortib olindi". Yana ta'kidlanadiki, "as-Sin mamlakati turklarning barcha mamlakatlari, at-Tubbat (Tibet)ning bir qismi va butparastlar diniga e'tiqod qiluvchilarning barchasini oʻz ichiga oladi" [al-Istakhri, 4; Ibn Haukal, 9]. Abu Rayhon Beruniy ham shunday yozgan: "as-Sin mamlakatiga as-Sinning oʻzi (ya'ni Koshgʻar)dan tashqari, Tibet, Xoʻtan, Balx daryosining orqasidagi mamlakatlar va ularga qoʻshni boʻlgan turklar kiradi" [Бируни 1966, 155].

Bu ma'lumotlardan kelib chiqib, taxmin qilish mumkinki, amir Nasr ibn Ahmad bilan qarindosh tutingan "as-Sin podshohi" Qoraxoniylar sulolasining hukmdori Satuq Bugʻroxon (920 – 955-yillarda hukm surgan) boʻlgan. Uning bobosi Bilga Kul Qadir Arslonxon (840 – 893-yillarda hukm surgan) va otasi Bazir Arslonxon (893 – 920-yillarda hukm surgan) qarluqlarning Somoniylarga qarshi olib borgan kurashiga boshchilik qilgan. Otasining vafotidan keyin Satuq Koshgʻarda amakisi Oʻgʻulchaq Arslonxon (893 – 940-yillarda hukm surgan) saroyida yashagan. Rivoyatga koʻra, Satuq Bugʻroxon 932-yilda 12 yoshida yashirin ravishda islom dinini qabul qilib, Ibrohim ismini olgan edi [ал-Карши, 20 – 24]. 327/938-39-yilda Oʻgʻulchaq Arslonxon amir Nasr ibn Ahmad huzuriga elchilar yuborib, Satuqni uning qiziga uylantirmoqchi boʻldi. Lekin Nasr ibn Ahmad unga rad javobi berdi, chunki u Satuq Bugʻroxonni gʻayridin deb bilar, uning yashirin ravishda islom dinini qabul qilganini bilmas edi. Qoraxoniylar sulolasi qarluq qabilalaridan yetishib chiqqan edi, qarluqlar esa ilk oʻrta asrlarda uygʻurlar va boshqa jami 9 ta qabila bilan birga "toʻquz oʻgʻuz" deb ataluvchi qabilalar ittifoqini tuzishgan edi. Demak, ular oʻzlarining kelib chiqishini Somoniylar sulolasi bilan bir boʻlgan deb hisoblashiga asos bor edi.

**Amir al-Muntasir**

Somoniylar sulolasining soʻnggi amiri al-Muntasir faxriy nomi bilan mashhur boʻlgan Abu Ibrohim Ismoil ibn Nuh as-Somoniy (vafoti 395/1004-05) Gʻuz turklari yetakchisi Yabgʻuning qiziga uylanib, u bilan qarindosh tutingan [Gardizi, 383; Гардизи 1939, 229]. Al-Muntasirning atrofidagi unga soqiq odamlarning deyarli barchasini uning turk amirlari va hojiblari – Arslon Yalu (Balu), Abu-l-Qosim Simjur, Husam ad-Davla Tosh, Abu Nasr Hojib va boshqalar tashkil qilgan, uning eng ishonchli himoyachisi va tayanchi, doʻsti va yordamchisi esa Tuztosh Hojib edi [ал-'Утби 1939, 224 – 225; ал-'Утби 1988, 37, 39, 40, 43]. Xurosonda amir

